



PAPER

“QAHRAMONLIK” KONSEPTI LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA

Akbarova Ruxsorxon Farxodjon qizi^{1,*}

¹Assistant teacher at Kokand State University

*akbarova@gmail.com

Abstract

Mazkur maqolada “qahramonlik” konsepti lingvokulturologik tadqiqot obyekti sifatida tahlil etilgan. Unda konseptning milliy-madaniy mazmuni, xalqning qadriyat tizimidagi o‘rni hamda til orqali ifodalanish xususiyatlari o‘rganilgan. “Qahramonlik” tushunchasi nafaqat leksik birlik sifatida, balki xalq ongida shakllangan madaniy konsept sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot davomida konseptning semantik tarkibi, metaforik va assotsiativ maydoni, shuningdek, ingliz, rus va o‘zbek tillarida ifodalanish o‘ziga xosliklari tahlil qilinadi. Maqolada lingvokulturologik yondashuv asosida qahramonlik obrazining tilda, adabiyotda va milliy tafakkurda aks etish mexanizmlari yoritilgan.

Key words: qahramonlik konsepti, lingvokulturologiya, milliy mentalitet, madaniy qadriyat, konseptual tahlil, obraz, metafora, assotsiativ maydon.

Kirish

Mazkur ishda konsept kognitivistikaning va psixolingvistikaning metatili asosiy tushunchasi sifatida tavsiflanishga harakat qilinadi. Shu munosabat bilan, konsept kognitiv lingvistika va lingvokulturologiya kategoriyasi sifatida ko‘rib chiqiladi hamda lingvokulturologik yondashuv asosida ushbu atamaning amaliy ta‘rifi keltiriladi. Keyinchalik, “qahramonlik” konsepti lingvokulturologik nuqtayi nazardan tahlil qilinib, uning mazmuniy chegaralarini belgilash maqsad

qilinadi. Shu maqsadda, “qahramonlik” konsepti madaniy-tarixiy va ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida ko‘rib chiqilib, leksikografik manbalar hamda antik davr, o‘rta asrlar, Uyg‘onish davri va Yangi davr faylasuflari va mutafakkirlarining asarlari tahlilga jalb etiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyalar

Hozirgi vaqtda zamonaviy lingvistikaning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri tilni uning atrof-muhit bilan bog‘liqligi nuqtayi nazardan o‘rganish

Compiled on: February 14, 2026.

Copyright: ©2026 by the authors. Submitted to Advances in Science and Humanities for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

hisoblanadi. Inson atrofidagi olamni qanday aks ettiradi, uni ongida qanday qabul qiladi va ushbu bilish faoliyatini hamda o'zlashtirilgan voqelikni til orqali qanday ifodalaydi degan masalalar zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning markazida turibdi. Til va madaniyat, til va etnos, til va mentalitet o'rtasidagi bog'liqlik masalalari, shuningdek, madaniyat til orqali qanday kodlanishi, turli til hodisalari qanday madaniy axborotni yetkazishi masalalari XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan lingvokulturologiya fanining asosiy tadqiqot obyekti tashkil etadi.

Lingvokulturologiyaning kategoriyaviy apparatining asosini til shaxsi va konsept tushunchalari tashkil etadi. Ushbu ish "qahramonlik" konseptini tadqiq etishga bag'ishlanganligi sababli, bu atamaning zamonaviy lingvistika fanida qanday talqin qilinishiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi vaqtda konsept termini lingvistikaning turli sohalarida — kognitivistika, psixolingvistika, semantika va lingvokulturologiyada keng qo'llanilmoqda. Ushbu tushunchaning turli fanlarning kategoriyaviy apparatlarida keng qo'llanilishi ilmiy paradigmalarni almashinuvi bilan bog'liq.

Xususan, XX asrning birinchi yarmida hukmron bo'lgan strukturalizmdan antropotsentrik yondashuvga o'tish natijasida ilmiy izlanishlarda mantiqiy usullardan voz kechilib, psixologiya va madaniyatshunoslikka murojaat qilindi. Bu esa, o'z navbatida, ilmiy muomalaga yangi tushunchaviy birlik — konseptni kiritish zaruratini tug'dirdi. Konseptni tadqiq qiluvchi olimlar uni turli kognitiv metaforalar orqali ta'riflashadi: "fikrlash operatsiyasining embrioni", "ma'no potensiyasi", "ko'p o'lchovli ma'no zichligi", "mavjudlikning ma'no kvanti", "madaniyat geni" yoki "inson ongidagi madaniyatning zichlashgan ifodasi, konsept madaniyatning kichik modelidir, deb fikr bildiradi Yu.S. Stepanov: u madaniyatni yaratadi va madaniyatdan yaraladi. Madaniyatning qaymog'i mag'zi sifatida konsept ekstralingvistik, pragmatik, tildan tashqaridagi ma'lumotlarga egalik qiladi.

Konseptlarni tadqiq qilgan dastlabki lingvistlardan biri S.A. Askol'dov bo'lib, uning "Konsept va so'z" nomli maqolasi 1928-yilda chop etilgan. Olimning fikriga ko'ra, konseptning

bilish vositasi sifatidagi eng muhim xususiyati — fikrlash jarayonida bir turkumga mansub noaniq ko'plab obyektlarni umumlashtirish va ularning o'rnini bosish qobiliyatidir. S.A. Askol'dovning g'oyalari D.S. Lixachevning tadqiqotlarida yanada rivojlantirildi. U konseptni til egalari og'zaki va yozma nutqda foydalanadigan ma'noning algebraik ifodasi sifatida talqin qilishni taklif etgan. Olimning fikricha, inson murakkab ma'noni to'liq qamrab olishga ulgurmaydi yoki bunga qodir emas, shuningdek, uni o'ziga xos tarzda talqin qiladi (bu jarayon uning ta'lim darajasi, shaxsiy tajribasi, muayyan ijtimoiy guruh yoki kasbga mansubligi va boshqa omillarga bog'liq). Shunday qilib, Askol'dov va Lixachev tadqiqotlari doirasida konseptlarning shakllanish jarayonini inson tomonidan idrok etilayotgan rang-barang voqelikni (jumladan, lingvistik voqelikni) inson xotirasi va ongining cheklangan resurslari bilan mos hajmgacha qisqartirish (reduksiya qilish) jarayoni sifatida tushunish mumkin.

Yuqorida ta'kidlanganidek, konsept kognitivistika, psixolingvistika va lingvokulturologiya kabi sinkretik fanlarning tadqiqot obyekti hisoblanadi. Kognitiv lingvistika doirasida esa konsept asosiy tushunchalardan biri sanaladi. Konseptning eng keng tarqalgan ta'riflaridan biri E.S. Kubryakovniki bo'lib, u ushbu terminning universalligiga va uning ortida turgan mazmunning umumiyligiga urg'u beradi. Olimning fikricha, konsept — bu "bizning ongimizdagi mental yoki psixik resurslarning birliklarini tushuntirishga xizmat qiluvchi termin". E.S. Kubryakova konseptning asosiy xususiyatlari sifatida operativlik, inson faoliyatining mazmunini aks ettirish, invariant (tartibga soluvchi) asosga egalik, moslashuvchanlik va harakatchanlik kabi jihatlarni ajratib ko'rsatadi. Shunday qilib, ushbu xususiyatlar konseptning murakkab va ziddiyatli tabiatidan dalolat beradi: u bir vaqtning o'zida ham operativ, ham inson tajribasining umumiy natijalarini aks ettiruvchi birlikdir, unda invariant asos mavjud bo'lsa-da, u doimiy o'zgarishda bo'ladi. Taniqli kognitivistlar Z.D. Popova va I.A. Sterninning ishlarida konsept yadro va periferiyaga asoslangan murakkab tafakkur birligi sifatida talqin etiladi. U konseptualizatsiya qilinayotgan hodisaning barcha jihatlari aks

ettirib, konseptning umumiy qamrovliligini va ko'p o'lchovliligini tasdiqlaydi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, konsept geshtalt, freym, tushuncha, tasavvur va boshqa shakllarda namoyon bo'lishi mumkin [Popova, Sternin 2003c: 72–74]. Konsept tarkibidagi ma'no yadro va periferiyaga asoslangan holda tashkil etilishi g'oyasi ingliz olimlari Jefri Lich va Yan Svartvik tomonidan ham qo'llab-quvvatlanadi.

Ularning fikricha, konseptning tuzilishi quyidagicha ko'rinishga ega: Psixolingvistik talqin kognitiv nazariyani yanada chuqurlashtirib o'rganishga zamin yaratadi. A.A. Zalevskaya, A.A. Leontyev, A.R. Luriya asarlarida konsept deb, mustahkamlangan va odatiy obraz xususiyatiga ega bo'lgan, o'rnini bosuvchi funksiyani bajaruvchi fikriy shakl tushuniladi. Ayniqsa, kognitiv nazariya doirasida tilga olinadigan subyektiv jihatdan muhim va dinamik xususiyatlarga alohida e'tibor qaratiladi (Zalevskaya 2001; Leontyev 1983; Luriya 1998). V. Tokarevning fikriga ko'ra, u konseptni lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilarkan, kognitiv hamda psixolingvistik talqinlar lingvomadaniyatshunoslik tadqiqotida qo'llanilishi mumkin emas, chunki kognitologiya tafakkurni alohida individ tomonidan diskurs yaratish jarayoni sifatida ko'radi. G.V. Tokarev ta'kidlaganidek, lingvomadaniyatshunoslik ongning shakllanishi, rivojlanishi va faoliyat yuritishini madaniy-tarixiy kontekstda o'rganadi, shu sababli kognitologiyaga xos bo'lgan konsept belgilari — operativlik, moslashuvchanlik, harakatchanlik, subyektivlik va nestrukturalik — lingvomadaniyatshunoslik uchun ahamiyatli emas. U uchun dolzarb bo'lgan belgilar bu — invariantlilik (o'zgarimaslik), konseptning mazmuniy to'ldiruvchisi, ya'ni inson faoliyati natijalarining aks etishidir [Tokarev 2003: 8].

Shu bois, lingvomadaniyatshunoslik yondashuvi doirasida (N.D. Arutyunova, S.G. Vorkachev, V.I. Karasik, V.V. Kolesov, G.G. Slyshkin, Yu.S. Stepanov, F.F. Farxutdinova va boshqalar) asosiy differensial belgi shundan iboratki, konsept madaniyat atributi, tushunchalar, emotsional-baholovchi qatlam, qisqa tarix va konseptni ifodalovchi so'z etimologiyasidan iborat bo'lgan ko'p o'lchovli global tuzilma sifatida qaraladi. Bundan tashqari, konsept obyektiv va tarixiy jihatdan belgilanadigan

hodisa sifatida qaraladi. Agar u doimiy yoki uzoq vaqt davomida mavjud bo'lsa, u madaniyat konstantasi maqomiga ega bo'lishi mumkin. Bu esa konsept madaniyat prinsipi rolini bajarishini anglatadi.

Natijalar va muhokama

Konsept quyidagi bloklar orqali tuzilgan: universal, madaniyatga xos (kultur-spetsifik), individuall-psixologik, aktual va noaktual — obrazli, tushunchaviy va qadriyatli bloklar [Stepanov 1997: 39–78; Karasik 2002: 129; 2005: 100]. V.I. Karasikning fikricha, konseptning qadriyat o'lchovi ushbu psixik shaklning individ va jamiyat uchun muhimligini aks ettiradi; obrazli o'lchovi — “amaliy bilimlarning dolzarb belgilarini” (ko'rish, ta'm, teginish kabi predmetlarning xususiyatlarini); tushunchaviy o'lchovi esa — konseptning til orqali mustahkamlab qo'yilgan shaklini ifodalaydi [Karasik 2002: 154]. V.I. Karasik konsept tuzilmasida qadriyat komponentining asosiy ahamiyatini ta'kidlaydi, chunki bu komponent madaniy jihatdan ahamiyatlidir. Qadriyatlar insonning ijtimoiy umumiy idealarni yaratish qobiliyati bilan chambarchas bog'liq. Jamoa ideallari, ya'ni individual doiradan chiqib ketadigan ideallar qadriyatli, madaniy ahamiyatli hisoblanadi. Shu sababli qadriyatlar va ularni o'z ichiga olgan konseptlar aslida ana shunday ideallarning ayrim jihatlarini aks ettiradi [Karasik 2001: 7–9]. Demak, lingvomadaniy konsept shakllanishining asosiy shartlaridan biri — uning mazmunining ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lishidir.

N. D. Arutyunova konseptni amaliy (kundalik) falsafa tushunchasi sifatida ta'riflaydi. U milliy an'ana, folklor, din, mafkura, hayotiy tajriba, san'at obrazlari, sezgilar va qadriyatlar tizimi kabi omillar o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi [Arutyunova 1993: 3]. Boshqacha aytganda, N.D. Arutyunova fikriga ko'ra, konseptlar inson va dunyo o'rtasida vositachilik qiluvchi o'ziga xos madaniy qatlamni hosil qiladi. G. Slyshkin lingvomadaniy konseptni quyidagicha ta'riflaydi: bu inson xotirasi imkoniyatlariga mos tarzda idrok etilayotgan dunyo bo'lagining qisqartirilishi, ushbu bo'lakning madaniyat kontekstiga kiritilishi va jamiyat a'zolarining kommunikativ ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan verba birliklarda

ifodalanishi natijasida shakllanuvchi murakkab mental birlikdir [Slyshkin 2004: 8].

G. V. Tokarevga ko'ra, lingvomadaniy tushunchada konsept — bu aqliy makrobirlik bo'lib, u tasavvurlar, ilmiy va kundalik tushunchalar, madaniy qarashlar, ideologemalar, stereotiplar asosida tuziladi. Konsept — bu global va ko'p o'lchovli mental shakllanishdir. U o'zida aniq va mavhum, obrazli va beobraz, emotsional-baholovchi va ratsional jihatlarni uyg'unlashtiradi [Tokarev 2003: 40]. Turli nazariyalar xilmaxilligi fan rivojlanishining ushbu bosqichida konseptga ikki asosiy yondashuv shakllanganini aniq asoslab beradi: kognitiv va lingvomadaniy yondashuv. Mavjud kognitivistik va lingvomadaniy konsepsiyalar o'rtasidagi asosiy nomuvofiqlik nuqtalari quyidagi konsept belgilari bilan bog'liq: kognitiv talqinda — bu aqliy kategoriya subyektiv, nestrukturallashgan va operativ deb qaralsa; lingvomadaniy yondashuvda esa — obyektivlik, strukturallik, globallik va tarixiylik asosiy xususiyatlar sifatida e'tirof etiladi.

Xulosa

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, "qahramonlik" konsepti har bir xalqning milliy tafakkuri, madaniy qadriyatlar va tarixiy tajribasini o'zida mujassam etgan murakkab lingvokulturologik hodisadir. U til birliklarida, folklor namunalari, badiiy adabiyotda va kundalik nutqda o'z ifodasini topadi. O'zbek tilida "qahramonlik" tushunchasi jasorat, fidoyilik, vatanparvarlik kabi ijobiy fazilatlar bilan bog'liq bo'lsa, ingliz va rus tillarida ham bu konsept o'ziga xos madaniy ranglarga ega. Lingvokulturologik yondashuv ushbu konseptni xalq ruhiyatini, tarixiy xotirani va milliy o'zlikni anglashning muhim vositasi sifatida o'rganish imkonini beradi. Shunday qilib, "qahramonlik" konsepti til va madaniyat o'zaro ta'sirini, shuningdek, konseptual dunyoqarashning shakllanish mexanizmlarini yoritishda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Маслова В.А. Лингвокультурология. — Москва: Академия, 2001.
2. Карасик В.И. Языковой круг: личность, кон-

цепты, дискурс. — Волгоград: Перемена, 2002.

3. Кубрякова Е.С. О концепте и концептосфере языка. — Москва: Наука, 1996.
4. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. — Москва: Школа «Языки русской культуры», 1996.
5. Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. — Москва: Русские словари, 1997.
6. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. — Chicago: University of Chicago Press, 1980.
7. Wierzbicka A. *Understanding Cultures through Their Key Words*. — Oxford: Oxford University Press, 1997.
8. Sharipov M. *Til va madaniyat munosabatining nazariy asoslari*. — Toshkent: Fan, 2012.
9. Safarov Sh. *Kognitiv tilshunoslik*. — Toshkent: Universitet, 2008.
10. G'afforov N. *Til va milliy madaniyat*. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
11. Boym A. *The Future of Nostalgia*. — New York: Basic Books, 2001.
12. Kramersch C. *Language and Culture*. — Oxford: Oxford University Press, 1998.
13. Hall E.T. *The Silent Language*. — New York: Anchor Books, 1973.
14. Barthes R. *Mythologies*. — New York: Hill and Wang, 1972.
15. Gumbrecht H.U. *Production of Presence: What Meaning Cannot Convey*. — Stanford: Stanford University Press, 2004.